



TALABALARDA IJODIY MULOQAT QILISH USULINI SHAKLLANTIRISH

Fayzullayeva Dilfuza Mirakbarovna

Xalqaro Nordik universiteti, pedagogika fanlari professori

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarda ijodiy muloqat qilish usulini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritilgan. Ijodiy muloqat, nafaqat shaxslararo aloqani samarali tashkil etish, balki ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish, mustaqil fikrlash va innovatsion yondashuvlarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Maqolada o'quv jarayonida samarali pedagogik metodlar, trening va interaktiv mashg'ulotlar orqali talabalarning ijodiy muloqat ko'nikmalarini rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalar berilgan. Tajriba asosida aniqlangan natijalar asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Ijodiy muloqat, talaba, ijtimoiy kompetensiya, trening, interfaol metodlar, kommunikativ malaka.

Annotation. This article explores the theoretical and practical aspects of developing students' creative communication skills. Creative communication is recognized as a crucial factor not only in establishing effective interpersonal interaction but also in fostering social competence, independent thinking, and innovative approaches. The study provides methodological recommendations for enhancing students' communication skills through training sessions, interactive activities, and contemporary teaching strategies. Practical conclusions are drawn based on experimental findings.

Key words: Creative communication, student, social competence, training, interactive methods, communication skills.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты формирования у студентов навыков творческой коммуникации. Творческое общение играет важную роль не только в эффективной межличностной коммуникации, но и в развитии социальных компетенций, самостоятельного мышления и инновационного подхода. Автор предлагает методические рекомендации по развитию навыков творческого общения у студентов через тренинги, интерактивные занятия и современные педагогические технологии. Полученные в ходе исследования результаты легли в основу практических выводов.

Ключевые слова: Творческое общение, студент, социальная компетентность, тренинг, интерактивные методы, коммуникативные навыки

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayoni nafaqat bilim berishga, balki shaxsning har tomonlama rivojlanishiga, ijtimoiylashuviga va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qilishi lozim. Ayni shu jarayonda ijodiy muloqat muhim o'rin tutadi. Talabalik davri — bu shaxsiy va kasbiy shakllanishning asosiy bosqichi bo'lib, unda ijtimoiy



kompetensiyalar, jumladan, muloqot madaniyati, o'z fikrini erkin va asosli ifoda etish, boshqa fikrlarga nisbatan tolerant munosabatda bo'lish ko'nikmalari shakllanadi.

Ijodiy muloqat — bu shunchaki fikr almashinuvi emas, balki yangi g'oyalar paydo bo'lishiga, turlicha qarashlarning uyg'unlashuviga olib keluvchi jarayondir. Bu esa o'z navbatida, talabalarning tafakkurini kengaytiradi, innovatsion fikrlashni shakllantiradi va jamoada ishlash malakasini rivojlantiradi. Oliy ta'lim muassasalarida bu ko'nikmani shakllantirish, pedagog tomonidan yaratilgan interfaol, hamkorlikka asoslangan, ochiq va qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini talab etadi.

Maqolada aynan shunday ko'nikmalarni talabalarda rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullar, pedagogik yondashuvlar va amaliy mexanizmlar tahlil qilinadi. Shuningdek, ijodiy muloqatni shakllantirishning dolzarbligi, uning zamonaviy kasbiy kompetensiyalar tizimidagi o'rni, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari muhokama qilinadi.

Shu bilan birga, maqolada olib borilgan tajriba asosida talabalarda ijodiy muloqatga oid salohiyatning shakllanish dinamikasi, uning samarali metodlar orqali qanday rivojlantirilgani bo'yicha tahliliy xulosalar keltiriladi. Mazkur mavzu ta'limda insonparvarlik va innovatsion yondashuvlar asosida samarali shaxsni shakllantirish yo'lida muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. ozirgi davrda ta'limning asosiy maqsadi — shunchaki bilim berish emas, balki har bir shaxsning ijodiy salohiyatini ochish, mustaqil fikrlash, yangicha yondashuvlar orqali muammolarni hal qila olish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ta'lim jarayonida talabalarning ijodiy muloqatga kirisha olish kompetensiyasi, ularning kasbiy va ijtimoiy muvaffaqiyatida hal qiluvchi omil sifatida qaralmoqda. Ijodiy muloqat insonning nafaqat bilim olish, balki o'zini ifoda etish, ijtimoiy aloqalarni barpo qilish va jamoa bilan samarali hamkorlik qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Bugungi globallashuv sharoitida jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy o'zgarishlar, shuningdek, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Jumladan, pedagogika fanida ijodiy muloqat masalasiga ilmiy-nazariy va amaliy yondashuvlar kengayib bormoqda. Bu jarayonda talabalarning muloqotga bo'lgan qiziqishi, tashabbuskorligi, erkin fikrlashi, muammoli vaziyatlarda o'z nuqtayi nazarini aniq ifoda eta olishi ta'lim samaradorligining muhim mezonlaridan biri hisoblanadi.

Shu sababli, talabalarda ijodiy muloqat qilish usullarini shakllantirish, bu borada pedagogik shart-sharoitlar yaratish, turli metodikalar va interaktiv yondashuvlarni joriy etish orqali ularning muloqot kompetensiyasini rivojlantirish — zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu esa o'qituvchi oldiga nafaqat bilim beruvchi, balki ijodiy muloqat muhiti yaratuvchi, o'z fikrini ifoda etishga undovchi shaxs bo'lish vazifasini qo'yadi.

Adabiyotlar tahlili. Ijodiy muloqat tushunchasi hozirgi zamon ta'limida pedagogik va psixologik tadqiqotlarning markaziy yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ushbu mavzuga oid nazariy qarashlar orasida J. P. Guilford tomonidan ilgari surilgan divergent fikrlash





nazariyasi alohida e'tiborga loyiq. U ijodiylikni inson tafakkurining o'ziga xos shakli sifatida tavsiflab, bunday tafakkur ijodiy muloqatning asosi bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi[1].

K. Robinson ta'lim tizimi ijodkorlikni rivojlantirishda qanday rol o'ynashi lozimligi haqida fikr yuritib, mavjud an'anaviy yondashuvlar bu salohiyatni cheklab qo'yishini tanqid qiladi[2]. Unga ko'ra, ijodkorlik — bu o'rgatiladigan va tarbiyalanuvchi fazilat bo'lib, muloqat jarayonida bu jihat namoyon bo'ladi[2].

M. Csikszentmihalyi tomonidan ishlab chiqilgan “oqim” (flow) nazariyasi shaxsning faoliyatga to'liq sho'ng'ishi natijasida yuzaga keladigan ijodiy holatlarni tushuntirib beradi. Bu holat muloqat jarayonida, ayniqsa, talaba faol ishtirok etganida yuzaga chiqadi[3].

A. Craft esa “kichik k” darajadagi ijodiylik konsepsiyasini ilgari suradi. Bu konsepsiya kundalik o'quv vaziyatlarida oddiy, biroq original fikrlar orqali muloqatni boyitish imkoniyatini beradi[4]. Bu yondashuv ayniqsa boshlang'ich va oliy ta'lim bosqichlarida talabalarning muloqatga kirishishdagi ishonch darajasini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

U.K. Begimqulov ta'lim jarayonida ijodiy salohiyatni shakllantirishning insonparvarlikka asoslangan pedagogik metodlari haqida fikr yuritadi. Uning tadqiqotlarida o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro hurmat, erkin fikr bildirish muhitining mavjudligi ijodiy muloqatga asos yaratishi ko'rsatilgan[5].

G.N. Turdimurodova innovatsion metodlardan foydalangan holda o'tkazilgan mashg'ulotlarning talabalarda mustaqil fikrlash va erkin ifoda ko'nikmalarini shakllantirganini qayd etadi[6].

M.X. Ismoilova esa ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishda kommunikativ muloqat, jamoada ishlash va empatiya kabi omillarning ahamiyatini asoslab bergan. U ijodiy muloqatning shakllanishi o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi ochiq aloqalarning mavjudligiga bog'liq ekanini ta'kidlaydi[7].

R.J. Sternberg va T.I. Lubart tomonidan ijodiylikning ko'p komponentli modeli taklif qilingan bo'lib, bu model doirasida muloqat qilish qobiliyati ijodkorlikning muhim tarkibiy qismi sifatida ko'riladi[8].

B. Yusupov O'zbekiston ta'lim tizimidagi ijodiy yondashuvlarga asoslangan islohotlar jarayonida muloqat madaniyati va ijodiy fikrlashga qaratilgan yondashuvlarning o'rni oshayotganini ta'kidlaydi[9].

Materiallar va metodlar: Ushbu tadqiqotning maqsadi – talabalarda ijodiy muloqat qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali usullarni aniqlash va amaliyotda sinab ko'rishdan iborat. Shu boisdan tadqiqotda nazariy va amaliy metodlar uyg'un holda qo'llanildi.

1. Tadqiqot ishtirokchilari

Tadqiqot Toshkent davlat pedagogika universitetining 2–3-bosqich talabalari ishtirokida olib borildi. Umumiy hisobda 60 nafar talaba eksperimental guruh sifatida tanlab olindi. Guruh tarkibi ixtisosligi bo'yicha turlicha bo'lib, bunda pedagogika, psixologiya, filologiya va boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari qamrab olindi.



2. Tadqiqot materiali

Asosiy material sifatida quyidagilar tanlandi:

- Ijodiy muloqat nazariyalariga oid ilmiy adabiyotlar;
- Pedagogik muloqat va kommunikatsiya fanidan amaliy topshiriqlar;
- Talabalarning yozma va ogʻzaki muloqat namunalarini tahlil qilish uchun yaratilgan test materiallari;
- Savolnomalar va intervyu shakllari;
- Tashkiliy mashgʻulotlar (trentinglar, rolli oʻyinlar, guruhliy bahslar).

3. Tadqiqot metodlari

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Nazariy tahlil – ilmiy adabiyotlar, ilgʻor xorijiy va milliy tajribalarni oʻrganish orqali asosiy tushunchalar va yondashuvlar aniqlab olindi.
- Empirik kuzatish – talabalar bilan olib borilgan amaliy mashgʻulotlar, guruhliy muhokamalar jarayonida bevosita kuzatish ishlari olib borildi.
- Diagnostik metodlar – ijodiy muloqat darajasini aniqlash uchun savolnoma, test va suhbatdan foydalanildi.
- Eksperimental metod – eksperiment dasturi asosida ikki bosqichda (boshlangʻich va nazorat) talabalarda ijodiy muloqat koʻnikmalari shakllantirildi va baholandi.
- Statistik tahlil – olingan natijalar SPSS dasturi yordamida qayta ishlanib, diagnostik va eksperimental koʻrsatkichlar oʻzaro solishtirildi.

4. Eksperiment dasturi

Eksperiment jarayonida quyidagi pedagogik vositalardan foydalanildi:

- Ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlar (masalan, “Bir predmetdan bir necha maqsadda foydalanish”, “Ikkita mutlaqo farqli narsaning umumiy tomonini topish”);
- Rolli oʻyinlar orqali muloqat stsenariylarini ishlab chiqish va baholash;
- Guruhliy muhokamalar va tanqidiy fikr almashinuvi;
- Interaktiv texnologiyalar (padlet, mentimeter, kahoot va boshqalar) yordamida onlayn va oflayn muhitda muloqot qilish.

5. Tadqiqot bosqichlari

1. Tayyorlov bosqichi – ilmiy-nazariy asoslar oʻrganildi, tajriba dasturi ishlab chiqildi.
2. Diagnostik bosqich – talabalar bilan dastlabki suhbatlar va testlar oʻtkazilib, ularning muloqat darajasi baholandi.
3. Eksperimental bosqich – amaliy mashgʻulotlar, treninglar orqali ijodiy muloqat usullari qoʻllanildi.
4. Nazorat bosqichi – yakuniy baholash ishlari olib borildi va natijalar tahlil qilindi. Ushbu ilmiy tadqiqotda talabalarda ijodiy muloqat qilish usullarini shakllantirishga doir mavjud pedagogik holat tahlil qilindi. Tadqiqot Toshkent davlat



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



pedagogika universiteti, Andijon davlat universiteti va boshqa oliy ta'lim muassasalarining 2-3-kurs talabarlari o'rtasida olib borildi. Tanlov namunasi 120 nafar talaba (60 nafari tajriba guruhi, 60 nafari nazorat guruhi)dan iborat bo'lib, tanlov psixologik tayyorgarlik, muloqotga ochiqlik darajasi, kasbiy yo'nalish asosida amalga oshirildi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Nazariy tahlil — mavzuga oid mahalliy va xorijiy adabiyotlar, maqolalar, dissertatsiyalar, normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, asosiy ilmiy g'oyalar tizimlashtirildi;

Eksperimental metod — ijodiy muloqatni rivojlantirishga qaratilgan muayyan pedagogik sharoitlar yaratilgan holda amaliy tajribalar tashkil etildi;

Diagnostic metodlar — so'rovnoma, test, suhbat, kuzatuv va esse orqali talabalar muloqat madaniyati va ijodiy yondashuv darajalari aniqlab borildi;

Statistik tahlil — olingan natijalar SPSS dasturi orqali matematik-statistik jihatdan qayta ishlanib, ishonchliligi ta'minlandi.

Tajriba davomida ijodiy muloqatga oid o'quv topshiriqlari, muammoli savollar, rolli o'yinlar va interaktiv mashg'ulotlardan foydalanildi. Shuningdek, guruhiiy ishlash, juftlikda fikr almashish va sahnalashtirish texnologiyalari tadbiiq qilindi. Bu yondashuvlar talabalar orasida fikrlash erkinligi, o'z fikrini asoslab bera olish, emotsional sezgirlik va hamkorlik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qildi.

Xulosa. Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – mustaqil fikrlovchi, ijodiy yondasha oladigan va samarali muloqatga kirisha oladigan shaxsni shakllantirishdir. Ushbu tadqiqot doirasida olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko'rsatdiki, talabalarda ijodiy muloqat ko'nikmalarini shakllantirish nafaqat ularning akademik faoliyatida, balki shaxsiy va kasbiy rivojida ham muhim o'rin egallaydi.

Ijodiy muloqat — bu oddiy axborot almashinuvidan tashqari, talabaniing o'z fikrini erkin, original, tizimli va ijtimoiy maqbul shaklda ifodalashini o'z ichiga oladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ijodiy muloqat ko'nikmalari talabalar o'rtasida faollik, tashabbuskorlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlikda ishlash va empatiya kabi kompetensiyalarning shakllanishiga bevosita xizmat qiladi.

Tadqiqotda foydalanilgan metodlar (treninglar, rolli o'yinlar, guruhiiy bahslar va ijodiy topshiriqlar) talabalarning faolligini oshirdi, ularni erkin fikr almashishga undadi. Eksperimental guruh natijalari shuni ko'rsatdiki, maqsadli tashkil etilgan ijodiy muloqat mashg'ulotlari o'quvchilarda ishonch, ijtimoiy faollik va kommunikativ kompetensiyalarni sezilarli darajada oshirgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki:

- Ijodiy muloqat talabalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim pedagogik vosita hisoblanadi.
- Uni shakllantirish uchun ochiq muhit, interaktiv metodlar va erkin fikr almashish imkoniyatini yaratish zarur.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



- Ijodiy muloqat ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni talab etadi.
- Talabalarni ijodiy muloqatga jalb etish orqali ularning liderlik salohiyati, tanqidiy tahlil qilish va empatiya bilan fikr yuritish malakalari shakllanadi.

Shuningdek, o'qituvchilar bu jarayonda motivatsiya beruvchi, yo'l ko'rsatuvchi va ishonch uyg'otuvchi yetakchi rolini bajarishi zarur. Kelgusida bu yo'nalishda olib boriladigan izlanishlar ta'lim mazmunini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1) Guilford, J. P. (1950). Creativity. *American Psychologist*, 5(9), 444–454.
- 2) Robinson, K. (2006). *Do Schools Kill Creativity?* TED Talk. URL: https://www.ted.com/talks/ken_robinson_do_schools_kill_creativity
- 3) Csikszentmihalyi, M. (1996). *Creativity: Flow and the Psychology of Discovery and Invention*. New York: Harper Perennial. – pp. 110–127.
- 4) Craft, A. (2001). *Creativity in Education: Comparing Approaches*. London: Continuum. – pp. 45–62.
- 5) Begimqulov, U. K. (2020). *Pedagogik faoliyatda ijodkorlikning ahamiyati*. Toshkent: TDPU nashriyoti. – 128 b.
- 6) Turdimurodova, G. N. (2019). Dars jarayonida innovatsion yondashuvlar. *Ta'lim innovatsiyalari ilmiy jurnali*, 2(3), 45–49.
- 7) Ismoilova, M. X. (2021). Ijodiy o'qituvchi kompetensiyalarini shakllantirishning dolzarb masalalari. *O'zbek pedagogikoti jurnali*, 1(1), 21–27.
- 8) Sternberg, R. J., & Lubart, T. I. (1999). The concept of creativity: Prospects and paradigms. In R. J. Sternberg (Ed.), *Handbook of Creativity*. Cambridge: Cambridge University Press. – pp. 3–15.
- 9) Yusupov, B. (2022). O'zbekiston ta'lim tizimida ijodiy yondashuvga bo'lgan munosabatlar. *Ilm va taraqqiyot jurnali*, 4(7), 61–67.